2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 14 (1075), 2024-yil 19-yanvar, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

INVESTITSIYA, EKSPORT VA SANOAT SOHALARIDAGI VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-yanvar kuni 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Bunga faqat ichki bozor bilan erishib bo‘lmaydi, asosiysi — xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko‘paytirish zarur.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilish avvalida ushbu sohalardagi ishlar holati, mutasaddilarning faoliyati ko‘rib chiqildi.

So‘nggi olti yilda yurtimizga xorijdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kirgan. O‘tgan yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foizga o‘sgan.

Biroq tovarlar eksportida o‘sish bo‘lmagan. Mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo‘yicha xorijiy sheriklar bilan ishlar lozim darajada tashkil etilmagan. Xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi 480 million dollarlik 5 ta loyiha bo‘yicha o‘zlashtirish boshlanmagan. Hududlarda moliyalashtirilishi to‘liq yakunlangan 8 trillion so‘mlik qariyb mingta loyiha haligacha ishga tushmagan.

Faoliyatida sustkashlikka yo‘l qo‘ygani uchun investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o‘rinbosari B.Abidov, Texnik tartibga solish agentligi direktori D.Sattarov, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi direktori M.Mirzayev lavozimidan ozod qilindi. Yana bir qator rahbarlarga intizomiy choralar ko‘rilishi aytildi.

Umuman, investitsiya kompleksiga kiruvchi barcha vazir va hokim o‘rinbosarlari faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) joriy etilishi belgilandi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari sohadagi kamchiliklarni aniq tahlillar asosida ko‘rsatib o‘tdi.

Masalan, o‘tgan yili 2 ta drayver tarmoq va 4 ta hududda 2022-yilga nisbatan eksport hajmlari kamaygan. Eksportning 50 foizi hanuzgacha 4 ta bozorga to‘g‘ri kelmoqda. Yoki xorijga tovarlarning uchdan bir qismi xomashyo sifatida sotilmoqda.

O‘zbekiston “GSP+” tizimiga qo‘shilib, Yevropaga 6 ming 200 turdagi tovarlarni bojsiz olib kirish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, o‘tgan yili bu tizim doirasida bor-yo‘g‘i 384 turdagi tovarlar eksport qilingan. Meva-sabzavot eksporti uchun xorijiy davlatlarning fitosanitar ruxsatlari olinganiga qaramasdan, bundan to‘liq foydalanilmagan.

Aslida, mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun eksportni yiliga kamida 30 foizga oshirib borish zarur.

Prezidentimiz bu boradagi muhim vazifalarga to‘xtalib, tuzilmaviy islohotlarni ma’lum qildi.

Xususan, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining tizimi, ish uslubi va yondashuvlari to‘liq o‘zgaradi. U yangi salohiyatli bozorlar topish, eksportbop mahsulotlar ekilishini tashkillashtirishga ham mas’ul bo‘ladi.

So‘nggi yillarda meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportida talab etiladigan barcha sertifikat va ruxsatnomalar to‘liq raqamlashtirildi. Lekin haligacha chegarada bu jarayon to‘rt idora tomonidan nazorat qilinyapti. Shu bois, chegaradagi barcha nazorat funksiyalari Bojxona qo‘mitasiga o‘tkazilishi belgilandi.

Ko‘plab korxonalarimiz xalqaro sertifikati yo‘qligi uchun global logistika zanjirlariga qo‘shila olmayapti. Iqtisodiyotning drayver sohalarida xalqaro standartlarni joriy qilish darajasi 35 foizga ham yetmaydi.

Shuning uchun Texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyati to‘liq isloh qilinib, Hukumat tarkibiga o‘tkaziladi. Mutasaddilarga korxonalarda xalqaro sifat tizimlarini joriy etish, sifati kafolatlangan mahsulotlar turini ko‘paytirish, salohiyatli davlatlar bilan milliy sertifikatni ikki tomonlama tan olish bo‘yicha kelishuvlarga erishish vazifasi qo‘yildi.

Eksportni kreditlashga 200 million dollar resurs berilgan. Bundan tashqari, bu yil eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlashga 800 milliard so‘m yo‘naltirilmoqda. Lekin berilgan mablag‘lar, har doim ham, qo‘shilgan qiymatli mahsulot va eksport manbaiga aylanmayapti.

Shu bois, endi eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimi ham o‘zgaradi. Eksportni rag‘batlantirish agentligi, Jahon savdo tashkiloti talablari asosida, Savdoni rivojlantirish kompaniyasi sifatida qayta tashkil etiladi. Bu kompaniya beradigan subsidiya, kredit va yordamlar yangi reyting asosida, eng avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot bilan yangi bozorlarga chiqayotgan eksportchilarga ajratiladi.

Mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazishda ishonchli logistika zanjirlarini tashkil qilish, mintaqaviy va yirik xalqaro loyihalarni jadallashtirish, tovarlarni bojxona rejimida qayta ishlashni kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Yig‘ilishda investitsiyalar samaradorligi va galdagi rejalar ham muhokama qilindi.

So‘nggi olti yilda mamlakatimiz sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 7 barobar oshgan. Yoki so‘nggi uch yilda xorijdan 14 milliard dollarlik asbob-uskunalar olib kelingan.

Lekin sanoat ko‘rsatkichlari, yaratilgan ish o‘rni va qo‘shilgan qiymat shunga yarasha oshmagan. Qator hudud va tarmoqlarda ishga tushirilgan korxona va uskunalar eksport natijasiga ta’sir ko‘rsatmagan. Loyihalar samaradorligi ustidan yetarli nazorat olib borilmayotgani tanqid qilindi va mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘tgan yili baliqchilik, parrandachilik, zargarlik, asalarichilik va ipakchilik tarmoqlarida, Samarqand va Toshkent shaharlarida, shuningdek, 12 ta tuman va shaharda investitsiyalar hajmi nisbatan kamaygan. Ayrim viloyatlarda xorijiy tashriflar va xalqaro ko‘rgazmalar chog‘ida kelishilgan investitsiya loyihalarining ijrosi sust.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga bu loyihalarni alohida nazoratga olib, jadallashtirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Yig‘ilishdagi yana bir mavzu sanoat ishlab chiqarishini ko‘paytirish haqida bo‘ldi.

Buning uchun yurtimizda 24 ta maxsus iqtisodiy zona tashkil qilingan. Ularga soddalashgan tartibda yer ajratilishi, soliqdan imtiyozlar belgilangan. Lekin bu imkoniyatdan to‘liq foydalanilmayapti. Masalan, respublika bo‘yicha bunday hududlarning tayyor infratuzilmaga ega 800 gektar maydoni bo‘sh turibdi.

Shu bois, iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo‘yicha yangi tajriba amalga oshirilishi belgilandi. Xususan, Buxoro, Navoiy va Toshkent viloyatidagi maxsus sanoat zonalarining 240 gektar maydoni xorijiy kompaniyalarga autsorsing asosida boshqaruvga beriladi.

Joriy yilda maxsus iqtisodiy hududlarda 309 ta yirik loyihani amalga oshirib, 40 mingta ish joyi yaratish mumkinligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari mahalliylashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratdi.

Vazirlar Mahkamasiga hududlarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini qabul qilish vazifasi qo‘yildi. Jumladan, talab yuqori bo‘lgan 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotini yurtimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, oziq-ovqat korxonalarida xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Bunday imkoniyatlar charm sanoatida ham bor. Masalan, aholimizda avtomobil o‘rindig‘i jildlari, sport buyumlari, poyabzal va ayollar sumkasiga talab ko‘p. Shundan kelib chiqib, tarmoq rahbarlariga hududlarda loyihalarni shakllantirish topshirildi.

Mahalliylashtirish faqat tovarlar emas, xizmatlarda ham bo‘lishi kerak. Xususan, oxirgi besh yilda energetika, neft-gaz va metallurgiya sohalarida katta zavodlar ishga tushdi. Bunday majmualardagi yuqori texnologik uskunalarni ekspluatatsiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha malakali xizmatlarga talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Shuni inobatga olib, Vazirlar Mahkamasiga yirik korxonalarga servis xizmati ko‘rsatishda mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish bo‘yicha vazifa qo‘yildi.

— Har bir rahbar fidoyi bo‘lib, vatani va xalqini sevib, tizimi bilan birga o‘z vazifalarini vijdonan bajarsa, biz qo‘yayotgan marralarga albatta erishsa bo‘ladi, — dedi Prezident.

Yig‘ilish yakunida investitsiya kompleksi rahbarlari, vazirlar va hokimlar joriy yildagi rejalari bo‘yicha axborot berdi.

O‘zA

Nuqtayi nazar

KREATIV IQTISODIYOT

G‘OYANI PULGA AYLANTIRISH TASHABBUSI

Insoniyat ko‘chmanchilikdan o‘troq sharoitga o‘tib, ijtimoiylashuv boshlangan davrdan to bugungi kunga qadar bo‘lgan jamiyatlar rivoji tahliliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har bir odamning farovon va to‘kis hayot kechirishi ikki asosiy jihat: birinchisi, shaxsiy maqsadlari va shunga muvofiq qilayotgan amali, ikkinchisi, u yashagan davr jamiyati qarashlari va barqarorligiga bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin. Bu ikki omilning qay biri muhimroq ekani borasida turli qarashlar mavjud. Bizningcha, birinchi omilni rad etmagan holda, ikkinchi jihatning ijtimoiy yo‘naltirish xarakteriga ega ekanidan kelib chiqib, uni asosiy omil sifatida baholash mumkin.

Bu nimalarda ko‘rinadi? Aytaylik, siz mo‘l hosil yetishtirishning hadisini olgan usta dehqonsiz. Har yili boshqalarga nisbatan ko‘p hosil va shunga yarasha daromad olasiz. Bu — sizning maqsad va uni amalga oshirishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlaringiz samarasi. Boshqacha aytganda, birinchi jihat hosilasi.

Ayni holatda agar ikkinchi jihat ta’siri va ko‘magi bilan yetishtirilgan hosilni qayta ishlasangiz, eksportga yo‘naltirsangiz, tabiiyki, daromadingiz va shunga mos ravishda turmush farovonligingiz bir necha barobar oshadi. Demak, bir-biriga uzviy bog‘liq ushbu omillarda ikkinchi jihat qamrovi va samaradorligi bo‘yicha ustunlikka ega.

Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Ayniqsa, mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadlar yo‘lida olib borilayotgan islohotlar samarasi bunga “uzukka ko‘z qo‘ygandek” mos tushadi. Nega deganda, yaqin-yaqingacha iqtisodiyotimiz paxta yakkahokimligiga asoslangan, jamiyat hayoti paxtachilikka chambarchas bog‘langan va o‘z navbatida, aholi farovonligi ko‘proq shu xomashyoni yetishtirish bilan bog‘liq edi.

Davomi 3-betda

Mulohaza

BARCHA ILLATLARNING DOYASI – LOQAYDLIK

Har qanday mafkuraning mohiyati, g‘oyaning kuchi targ‘ibot va tashviqotning samarali, ta’sirchan bo‘lishiga bog‘liq. Davlatimiz rahbari qayerda, qaysi soha vakillari bilan uchrashmasin, uchta tushunchaga alohida e’tibor qaratib, shuni talab etadi. Bular — sifat, samara va natija. Xalq xo‘jaligining barcha jabhalarida ana shu uchta tushuncha bo‘lmasa, harakatlar behuda ketadi, taraqqiyot haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas.

Prezidentimiz Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining raisi sifatida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida topshiriq va ko‘rsatmalar berib kelishi hammamizga ma’lum. Buni ma’naviyatga bergan ta’riflardan ham bilish mumkin.

Ilk ta’rif shunday: “Ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimiz”.

Darhaqiqat, g‘oyaviy mafkura omma ongiga tez, sodda, aniq, ravon va ta’sirchan singdirilmasa, qudratli qurol bo‘lishi amrimahol. Targ‘ibotchi ana shu tomonlarni e’tiborga olgan holda ish tutishi maqsadga muvofiq. Xalqimizning “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor” degan naqlini bilasiz. Bu faqat so‘zga emas, balki so‘zlovchiga ham taalluqli. Notiqlik san’atining muhim mezoni kimga, nima haqda, qachon, qayerda, qanday qilib va eng muhimi, qancha aytishni bilishdir. Targ‘ibotchilarning aksariyati ana shu oddiy qoidaga amal qilavermaydi. Natijada tinglovchilarni zeriktiradi, bezdiradi, oqibatda qo‘yilgan maqsadga erishilmaydi.

Ikkinchi ta’rif: “Iqtisodiyot jamiyat hayotining tanasi bo‘lsa, ma’naviyat uning joni va ruhidir”.

Tiriklikning belgisi jon, tana va ruh birligidan iborat. Demak, ular o‘zaro uyg‘un bo‘lgandagina voqelikni aniq ko‘ramiz, baholaymiz, munosabat bildiramiz. Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bo‘lmagan, fuqarolik burchini anglamagan insonda oila qayg‘usi ham, vatan tuyg‘usi ham bo‘lmaydi. Qornimdan boshqa g‘amim yo‘q, deya o‘z kunini o‘tkazaveradi.

Uchinchi da’vatkor ta’rif o‘tgan yilning 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida aytildi: “Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak”.

Davomi 5-betda

Jurnalist safarda bo‘ldi

TOMDAGI NOYOB QURILMA

U odamlarga qanchalik naf keltiryapti?

Tabiatning insonga atagan ne’matlari bisyor. Toza havo, quyosh nuri, yashillikdan tortib, suv, unumdor tuproqqacha bari tiriklik manbai, odamzodning farovon yashashiga xizmat qilayotgan tuhfalardir. Yana bularning barchasi beminnat. Oftob o‘z nurini sochgani, atmosfera toza havo bergani, o‘simliklar atrofni kislorod bilan to‘yintirgani uchun bizdan hech qanday haq olmaydi. Aksincha, ulardan ikkilamchi maqsadlarda ham foydalanish mumkin va bu bizning davrimizga kelib, tobora ommalashib boryapti. Ayniqsa, tabiiy yorug‘likdan elektr energiya olish texnologiyasini chinakam kashfiyot, desa bo‘ladi.

Davomi 4-betda

19-yanvar — Mahmudxo‘ja Behbudiy tavallud topgan kun

“TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK”

Bu ma’rifatparvar jadidlarimiz shior qilib olgan ezgu g‘oya edi

Shaxs kamolotida orzu-ideal qanchalik zarur bo‘lsa, jamiyat ravnaqi uchun g‘oyaning ahamiyati undan kam emas. O‘tgan asr tongida jadidchilik g‘oyasi millatning uyg‘onish mafkurasi bo‘lib, katta kuchga aylangani singari yangi O‘zbekiston g‘oyasi zamonaviy taraqqiyotga quvvat bag‘ishlayotgani sababi shunda. “Jadid” atamasi yangi, yangilik ma’nolarini anglatishi e’tiborga olinsa, jadidchilik va yangi O‘zbekiston g‘oyalarining nechog‘liq uyg‘un ekani yanada oydinlashadi.

Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

Prezidentimiz Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida bunga alohida urg‘u berdi: “Ma’rifatparvar jadidlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”.

Ayni uyg‘unlik mohiyatini chuqur tahlil etish, o‘z g‘oyalari atrofiga jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta olgan ma’rifatparvar jadidlarning adabiy-ilmiy merosi va ijtimoiy-ma’rifiy faoliyatidan bugungi taraqqiyotni ta’minlashda to‘laqonli foydalanish, shuning uchun ham, hayotiy ehtiyojdir.

Davomi 6-betda

Ko‘mir, uran va kaolin qazib chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha ham imkoniyat hamda zaxiralarimiz yetarli. Joriy yilda uranni qayta ishlash quvvatini ikki karra oshirish, kaolin va ko‘mir qazib olish hajmini ko‘paytirishga doir muhim vazifalar ijrosi ta’minlanadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 19-yanvar, 14-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Munosabat

GEOLOGIYA-QIDIRUV ISHLARI

SANOAT TARMOQLARINI RESURSLAR BILAN TA’MINLASHDA STRATEGIK AHAMIYATGA EGA

Aholi farovonligini oshirish maqsadida iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, xususan, mahalliy xomashyodan qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot yaratishning to‘liq zanjirini yo‘lga qo‘yish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb qilish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish borasidagi ishlar ko‘lami yildan-yilga kengayib boryapti.

Eldor MAHAMMADIYEV,
Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi boshqarma boshlig‘i

Dunyoda kechayotgan bugungi murakkab vaziyatda O‘zbekistonning nafaqat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, balki undan yanada kuchli bo‘lib chiqish borasida katta maqsad va rejalar belgilab berilyapti. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida sanoatning drayver sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish maqsadida sohada qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va yuqori daromadli 2,5 millionta ish o‘rni yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, buning uchun 60 ming kvadrat kilometr maydonda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish, ya’ni xomashyo zaxiralarini ko‘paytirish vazifasi belgilangan.

Bundan tashqari, strategiyada sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar, yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo‘lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltinni 1,5 barobar, kumushni 3 barobar, uranni 3 barobar ko‘paytirish maqsadi ham belgilanganki, bu vazifalar ijrosi ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish, aholi bandligini ta’minlash, umuman olganda, iqtisodiyotimiz barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarning hayotga o‘z vaqtida va sifatli tatbiq etilishi zanjir halqasidek bir-biriga uzviy ulangan jarayonga bog‘liq. Ya’ni raqobatbardoshlik xalqaro bozorning bugungi asosiy talabi ekan, unga erishish ishlab chiqarish sifati va hajmini oshirish, tannarxni pasaytirish, xomashyodan qo‘shilgan qiymat yaratishning to‘liq zanjirini yo‘lga qo‘yish zaruratini yuzaga keltiradi. Pirovard natija esa xomashyo zaxiralarini ko‘paytirish, buning uchun geologiya-qidiruv ishlari qamrovini kengaytirishga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, bugungi o‘sib borayotgan iqtisodiyotni resurslar bilan ta’minlashda geologiya-qidiruv ishlari strategik ahamiyatga ega.

Shu bois, geologiya-qidiruvning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilib, sohaga yiliga 1 trillion so‘m ajratilmoqda. Natijada 31 ming kvadrat kilometr yangi hududlar o‘rganilib, 2023-yilda oltin zaxiralari 103,1 foiz, kumush 140,8 foiz, mis 101,7 foiz, uran 110,5 foiz, qo‘rg‘oshin 100,7 foiz, rux 126,6 foiz, volfram 125,3 foiz, yer osti suvlari 132,8 foiz hajmda ko‘paytirildi.

Shuningdek, oltinning prognoz resurslari 100 foiz, kumush 100,7 foiz, mis 106,8 foiz, uran 100 foiz, qo‘rg‘oshin 100,9 foiz, rux 110,2 foiz, volfram 100,5 foiz va uglevodorod 3 barobar hajmda o‘stirildi.

Xususiy sektor uchun yaratilgan imkoniyatlar evaziga noruda konlarga investorlar jalb qilinmoqda. Sohada bugungi kunda 1 milliard 700 ming dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Lekin geologiya sohasida foydalanilmagan imkoniyatlar ko‘p. Shundan kelib chiqib, 2024-yilda bu ko‘rsatkichni 2 barobar oshirish rejalashtirildi. Binobarin, foydalanilmagan imkoniyatlarni ishga solish konlar va ularni o‘zlashtirish ko‘lamini kengaytirish, boshqacha aytganda, xomashyoni ko‘paytirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz shu yil 15-yanvar kuni geologiya sohasida qilingan ishlar va kelgusi rejalarga oid taqdimot bilan tanishish chog‘ida yaqin va uzoq istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab berdi. Davlatimiz rahbari sohada uzoqni ko‘zlash va zamondan ilgari yurish muhimligini ta’kidladi.

> **Geologiya-qidiruvning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilib, sohaga yiliga 1 trillion so‘m ajratilmoqda. Natijada 31 ming kvadrat kilometr yangi hududlar o‘rganilib, 2023-yilda oltin zaxiralari 103,1 foiz, kumush 140,8 foiz, mis 101,7 foiz, uran 110,5 foiz, qo‘rg‘oshin 100,7 foiz, rux 126,6 foiz, volfram 125,3 foiz, yer osti suvlari 132,8 foiz hajmda ko‘paytirildi.**

Aholi, ijtimoiy soha va sanoat tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqib, ko‘mir qazib chiqarish hajmini 22 foiz oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Albatta, belgilab berilgan bu vazifa ijrosini ta’minlash uchun barcha asoslar mavjud.

Xususan, birinchidan, yurtimiz hududida 2 milliard tonna ko‘mir zaxiralari borligi hisob-kitob qilingan.

Ikkinchidan, o‘tgan yili “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatini modernizatsiya qilish loyihasi yakunlandi. Birgina ana shu loyiha evaziga yurtimizda yuqori sifatli ko‘mir qazib olish quvvati 900 ming tonnagacha oshadi. Boysun konini o‘zlashtirish orqali ham ishlab chiqarishni yanada kengaytirish imkoniyati katta.

Uchinchidan, Prezidentimizning 2017-yil 13-iyundagi “2017-2021-yillarda ko‘mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, o‘tgan yillar mobaynida ma’nan eskirgan texnika vositalarini yangilash, konchilik tizimidagi temir yo‘llarni modernizatsiya qilish, yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Taqdimotda ilg‘or xorijiy tajriba asosida boyitish chiqindilarini qayta ishlash masalasiga ham e’tibor qaratildi.

Umuman olganda, taqdimotda belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, marrani yanada katta olishimiz, geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirib, aniqlangan zaxiralarni samarali o‘zlashtirish choralarini ko‘rishimiz zarur. Bunda 2024-yili olis hududlarda geologiya qidiruv ishlari olib borish hisobiga yangi konlar ochish va ularni tadbirkorlarga shaffof mexanizmlar asosida E-auksion platformasida taklif qilish, bu orqali yangi ish joylari yaratish, olis hududlarda yangi korxonalar barpo etishga kirishish talab qilinadi.

Topshiriqlar ijrosi yuzasidan 4 asosiy yo‘nalish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Birinchisi, strategik ahamiyatga ega mineral xomashyo bazasini rivojlantirishga chuqur ilm-fan texnologiyalari, innovatsion yechimlar tatbiq etiladi, respublika hududida yangi noan’anaviy konlarni aniqlash va o‘zlashtirishga xalqaro ekspertlar jalb qilinadi.

Ikkinchisi, noruda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish ishlari davom ettiriladi. Tadbirkorlarni oq, sifatli va arzon kaolin bilan ta’minlash choralari ko‘riladi.

Uchinchi yo‘nalishda qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish orqali yangi ish o‘rinlari ochiladi.

To‘rtinchisi, soha uchun zarur bilimli, zamonaviy talablarga to‘liq mos keladigan kadrlarni tayyorlashga e’tibor kuchaytiriladi, ilg‘or markazlardan mutaxassislar jalb qilinadi va malakasi oshiriladi.

Ko‘mir, uran va kaolin qazib chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha ham imkoniyat hamda zaxiralarimiz yetarli. Joriy yilda uranni qayta ishlash quvvatini ikki karra oshirish, kaolin va ko‘mir qazib olish hajmini ko‘paytirishga doir muhim vazifalar ijrosi ta’minlanadi.

Yangi konlarni aniqlash, tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish, transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi ishlar jadal davom ettiriladi. Binobarin, pirovard maqsad — global raqobatda yutish doim ishlab chiqarish hajmini oshirish, tannarxni qisqartirishni talab etgan. Bu jarayonda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, ushbu yo‘nalishni yaxlit bir tizimning boshlang‘ich nuqtasi, deyish mumkin. Shu ma’noda, yuqorida qayd etilgani kabi yirik loyihalarni amalga oshirish xalqimiz farovonligi, iqtisodiyot rivoji va barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Taraqqiyot mezonlari

HAR YILI 500 MILLION SO‘M TEJALADI

natijada 21 mingdan ortiq tadbirkor faoliyati kengayadi

Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Uyi va tayinli ish joyiga ega odamda yaratuvchanlik, izlanish, o‘z ustida ishlash va hayotdan rozilik kayfiyati baland bo‘ladi. Shu bois, mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash, kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash, yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan katta ishlar qilinmoqda. Xususan, aholining ishchanlik faolligi va tadbirkorlik tashabbusini rag‘batlantirish, ijtimoiy zaif qatlam bandligini ta’minlash bo‘yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Hozir aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, daromadli mehnat bilan band qilish, biznesni boshlash istagidagi fuqarolarga moddiy va ijtimoiy ko‘maklashishga alohida ahamiyat berilyapti. Eng avvalo, biznes vakillariga katta ishonch bildirildi. Doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan, ishsiz yoshlar hamda xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi o‘quv markazlariga yo‘naltirish orqali bandligini ta’minlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Mamlakat bo‘yicha ko‘plab monomarkazlar va filiallari, kasb-hunar markazlari tashkil etildi.

Ishsiz yurtdoshlarimiz o‘z biznesini boshlashi, jumladan, kasb va tadbirkorlikni puxta o‘rganishi uchun barcha sharoit, qulayliklar yaratildi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada ichki va tashqi bozorda o‘z nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi. Barcha tarmoqlarda tadbirkorlik muhiti yaratilib, kichik va o‘rta biznes hayotimizga jadal kirib keldi. Tadbirkorlar davlatning ishonchli hamkori, davlat esa har bir biznes vakilining yaqin do‘stiga aylandi. Asosiysi, ushbu sohada minglab fuqarolarning bandligini ta’minlashga erishildi.

Bugun mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelayotgani, ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlar mehnat qilayotgani xususiy biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni ham oshib borayotganidan dalolat beradi. Binobarin, biznes rivojlangan, tadbirkorlik keng quloch yoygan yurtda aholi farovon yashaydi, odamlar hayotdan rozi bo‘ladi, jamiyat rivojlanadi. Ishsizlik esa o‘z ortidan ko‘plab muammolarni yetaklab keladi. Shu bois, har bir insonning turmush darajasini yanada yaxshilash, mahallalarda odamlar uchun munosib sharoit yaratish hozir har qachongidan ham muhim.

> **Mamlakatimizda bandlik sohasiga bu darajada katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki hozir ishsizlar soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qilyapti. 2024-yilda yana 2 million 400 ming aholi mehnat bozoriga kirib kelishini inobatga olsak, bu borada zarur choralar ko‘rish, biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish g‘oyat muhimligi ayon bo‘ladi.**

Ishsizlikni kamaytirishning eng samarali yo‘llaridan biri — aholini kasbga o‘qitish, odamlarda tomorqaga, yerga munosabatni o‘zgartirishdir. Bu jarayonda har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo‘nalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oilalarga yer ajratilayotgani ham yuqori samara berayotir.

2024-yilning mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e’lon qilingani zamirida ham chuqur ma’no bor. Joriy yilda ham iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratish yanada kuchaytiriladi, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholi daromadini oshirish davlatimiz e’tiborida bo‘ladi, degani.

Haqiqatan, yurtimizda aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar faollashmoqda. Prezidentimizning hududlar iqtisodiyoti, aholi turmush sharoiti bilan yaqindan tanishish maqsadida viloyatlarga tashriflarida ham asosiy e’tibor ishsizlikni kamaytirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilmoqda. Deyarli har bir selektor yig‘ilishlarida ushbu masala muhokama qilinyapti. Yaqinda ham Prezidentimiz aholi bandligini oshirish hamda tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishish davomida bandlik sohasiga doir muhim vazifalarni belgilab berdi.

Mamlakatimizda bandlik sohasiga bu darajada katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki hozir ishsizlar soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qilyapti. 2024-yilda yana 2 million 400 ming aholi mehnat bozoriga kirib kelishini inobatga olsak, bu borada zarur choralar ko‘rish, biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish g‘oyat muhimligi ayon bo‘ladi. Aynan shu ma’noda joriy yilda 5 million aholining bandligini ta’minlash maqsad qilingani e’tiborga molik. Sababi ayni paytda xizmatlar sohasida 2,5 million, qishloq xo‘jaligida 2,1 million, investitsiya loyihalari va sanoatda 250 ming, qurilishda 140 ming ish joyi yaratish imkoniyati bor.

Zamonaviy moliyaviy instrumentlar, jumladan, mikromoliyalashning yangi tizimini keng joriy qilish orqali 2 million aholini biznesga jalb qilish ko‘zda tutilayotgani davlatimiz tomonidan aholi bandligini ta’minlash, xalqimizning hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun katta islohotlar boshlanganidan dalolat beradi. Taqdimot yig‘ilishida 2024-yilda yangi ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi bo‘yicha ham axborot berildi. Davlatimiz rahbari ushbu dasturni ma’qullab, uni amalga oshirish yuzasidan qo‘shimcha ko‘rsatmalar berdi.

Iqtisodiy aylanmaga kiritilmagan yerlarni infratuzilmaga ulash, loyihalarni ishga tushirish uchun tashabbuskorlarni qo‘llab-quvvatlash ham kechiktirib bo‘lmas vazifadir. Bu jarayonda “Agregator” tizimi asosida “100 ming eksportchi dehqon” dasturi joriy qilinib, bu yil 15 ming gektar yer maydoni auksionga chiqarilishi belgilangani eng to‘g‘ri va oqilona yo‘ldir.

Taqdimotda tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash tartibini soddalashtirishga oid takliflar ham ko‘rib chiqildi. Bu yil yurtimizda biznesni yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsad qilingan. Hozirga qadar tadbirkorlardan mavjud ma’lumotlarni qo‘shimcha ravishda talab qilish holatlari bor edi. Joriy yildan boshlab 34 turdagi hisobotlar bekor qilinmoqda. Buning natijasida har yili 21 mingdan ortiq tadbirkorning 500 million so‘m xarajati tejaladi.

Har oyning oxirgi haftasida joylarda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazamiz. Ochiq muloqotlarimiz chog‘ida ko‘plab yoshlar, xotin-qizlar bilan suhbatlashamiz. Ochig‘i, ularning aksariyatida tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga, biznesni boshlashga bo‘lgan qiziqish yuqori. Ko‘zi yonib turibdi, qalbi orzularga to‘la. Lekin ularning biror ishning boshini tutishiga, o‘z loyihasini amalga oshirishiga imkoniyati yo‘q, qurbi yetmaydi.

Yig‘ilishda tadbirkorlarga majburiy talablarni qisqartirish maqsadida 16 ta litsenziya va ruxsatnomani bekor qilish lozimligi belgilandi. Bu minglab tadbirkorlarning ayni dilidagi gap bo‘ldi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Bular hali hammasi emas. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobar, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu dasturiy hujjatda mehnatga layoqatli aholi, jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lganlarning bandligini ta’minlash orqali ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish qayd etilgan. Shuningdek, 2 million fuqaroni kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Umuman, belgilab berilgan vazifalar faqat vazirlik yoki idoralar rahbarlariga tegishli emas. Bu barcha darajadagi rahbarlar, jumladan, deputatlar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Shunday ekan, bu borada berilayotgan yengilliklarni tadbirkorlarga yetkazish, ularning takliflarini doimiy o‘rganib, statistik hisobotlarni yanada maqbullashtirib borishda barchamiz faol va tashabbuskor bo‘lishimiz lozim. Shundagina tizimli ishlar o‘z samarasini beraveradi.

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi birinchi marta 2000-yilda Business Week jurnalidagi maqolada tilga olingan. Unda muallif XXI asrda kompaniyalar taraqqiyotida kreativ g‘oyalarning ahamiyati ortib, intellektual resurslar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanishi hamda yangi iqtisodiyot sharoitlariga moslashish imkoniyatlari haqida fikr yuritgan.

Nuqtayi nazar

KREATIV IQTISODIYOT

G‘OYANI PULGA AYLANTIRISH TASHABBUSI

Oybek DO‘SMUHAMEDOV,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning bunday uzoq turg‘unlik — xomashyo yetishtirishdan uni chuqur qayta ishlab, sanoatlashish jarayoniga o‘tishga doir qat’iy talab va tashabbuslari, shunga mos yaratib berilayotgan sharoitlar tufayli tarixan qisqa davrda katta yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Buni nafaqat paxta xomashyosini o‘zimizda to‘liq qayta ishlashga erishilgani va tekstil yo‘nalishida ko‘plab yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilgani, balki avvallari xomashyo sifatida eksport qilingan qora va rangli metallarni qayta ishlashning to‘liq zanjiri yaratilgani kabi misollarda ham ko‘rish mumkin.

Qulay infratuzilma va biznes muhiti yaratish yo‘lida

Ikkinchi jihatning yana bir muhim tomoni — jamiyatni ma’lum bir maqsad yo‘lida birlashtirish, boshqacha aytganda, yo‘naltirish hamda qo‘llab-quvvatlash bugungi globallashuv va jadal taraqqiyot sharoitida raqobatda yutishning muhim shartiga aylandi. Shu bois, O‘zbekiston ham yuksak taraqqiyotga erishish va aholi farovonligini yanada yuksaltirishdek katta maqsadlarni o‘z oldiga ustuvor vazifa sifatida qo‘yar ekan, bu jihatga alohida e’tibor qarata boshladi. Aholini tadbirkorlikka keng jalb etish, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, buning uchun qulay infratuzilma va biznes muhiti yaratish, huquqiy asoslarni mustahkamlash choralari ko‘rildi va bu jarayon davom etyapti.

Gap iqtisodiyot barqarorligi va aholi farovonligi haqida borar ekan, uni ta’minlashning eng asosiy sharti zamon talablariga mos yangi g‘oya va tashabbuslarni hayotga tatbiq etishdir. Binobarin, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, **“Yangi davr uchun yangi g‘oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma’noda yangi davr bo‘ladi”.**

E’tiborli jihati, keyingi yillarda avvalgi davrlardan farqli o‘laroq, yangilikdan, yangilanishdan cho‘chish emas, yangi g‘oya va tashabbuslarni ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq etish kuchaydi. Bu jarayonda, ayniqsa, davlatimiz rahbarining shaxsan o‘zi xalqaro miqyosda ham faol ekani diqqatga sazovor.

Prezidentimiz 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqida iqtisodiyotimiz barqarorligi, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi yana bir yangi yo‘nalish — kreativ iqtisodiyotga to‘xtalib, “Kelgusi yili Toshkentda kreativ iqtisodiyotga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyani, Nukusda esa “Orol madaniyati” xalqaro ilmiy anjumanini o‘tkazamiz. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha alohida qonun qabul qilish ham kun tartibidagi dolzarb masaladir”, dedi.

Ijodiy iqtisodiyot va industriya

Kreativ iqtisodiyot atamasi aksariyatimiz uchun nisbatan yangilik. Shuning uchun kreativ iqtisodiyot o‘zi nima ekani, qaysi yo‘nalishlarni qamrab olishi, imkoniyatlari xususida fikrlashamiz.

Avvalo, kreativ iqtisodiyot atamasi ma’nosiga to‘xtalsak. Kreativlik lotincha Creatio — yaratish, bunyod etish, ijodkorlik so‘zlaridan olingan va atama sifatida 1950-yillarda psixologiya faniga kirib kelgan. Kreativlik deganda, shaxsning ma’lum standartlar, normalar, shablonlardan chetga chiqish layoqati va barcha jabhalarda noodatiy yondashuv xususiyati tushuniladi.

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi birinchi marta 2000-yilda Business Week jurnalidagi maqolada tilga olingan. Unda muallif XXI asrda kompaniyalar taraqqiyotida kreativ g‘oyalarning ahamiyati ortib, intellektual resurslar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanishi hamda yangi iqtisodiyot sharoitlariga moslashish imkoniyatlari haqida fikr yuritgan.

Uning bugungi kundagi zarurati, jumladan, O‘zbekiston uchun ahamiyati haqida to‘xtalganda, jahonda kreativ iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan global tarmoqlardan biriga aylanib borayotganini alohida ta’kidlash o‘rinli. Bu yo‘nalish xalqaro darajada kelajakdagi iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Masalan, UNESCO tahlillariga ko‘ra, ushbu yo‘nalish jahon YIMning 3,1 foizi va barcha ish o‘rinlarining 6,2 foizini tashkil etmoqda.

Ushbu yo‘nalish bugun shu qadar ustuvor yo‘nalishga aylanyaptiki, hatto BMT 2021-yilni Barqaror rivojlanish uchun Xalqaro ijodiy iqtisodiyot yili, deb e’lon qildi. “Influencer Marketing Hub” ma’lumotiga ko‘ra, ijodiy iqtisodiyotning global bozori joriy yilda 1 trillion dollarga yetadi.

Kreativ iqtisodiyot, bu — barcha tarmoqlarda g‘oyadan pul topishga asoslangan faoliyat hisoblanadi. Uning asosiy yo‘nalishi kreativ industriyadir. Kreativ industriya intellektual faoliyat natijasida yaratilgan tovar va xizmatlarni sotishga asoslangan iqtisodiyotning maxsus tarmog‘idir. Ushbu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda texnologiya, innovatsiya va kreativlikning rivojlanishi muhim rol o‘ynaydi. G‘arb davlatlarida kreativ sohalarni rivojlantirish bundan 15-20 yil avval qo‘llab-quvvatlana boshlagan.

BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) klassifikatsiyasi kreativ sohalarni to‘rtta asosiy guruhga bo‘lgan: meros, san’at, media va funksional. Bu guruhlar, o‘z navbatida, to‘qqizta quyi guruhlarga bo‘lingan.

Mamlakatimizda kreativ industriya, jumladan, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayni paytga qadar ushbu yo‘nalishni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgani diqqatga sazovor. Xususan, Prezidentimizning 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 6 iyuldagi “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari bilan ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilandi. Jumladan:

— innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish;

— innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

— kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘sishini ta’minlash;

— yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g‘oyadan yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta’minlash orqali innovatsiyalarga talabni rag‘batlantirish;

— ta’limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish;

— muzey boshqaruvi va marketingida ilg‘or xorijiy tajribani yaratish;

— madaniyatni kengroq o‘rganish va olg‘a siljishida innovatsion g‘oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish;

— madaniyat va san’at sohasida milliy brendlarni yaratish va ularning jahon turizm bozorlariga chiqishiga kompleks ravishda yondashuv;

— kino sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy marketing tadqiqotlarini o‘tkazish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi me’yoriy hujjatlarida kreativ iqtisodiyot yoki kreativ industriya so‘zlari uchramaydi, bu mamlakatimiz uchun nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Kreativ iqtisodiyot asosan, “startap”lar, ya’ni yangicha biznes-loyihalar, original g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali fuqarolarning ishlab chiqarishdagi faol ishtirokini nazarda tutadi.

Xalqaro tajriba

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kreativ industriya shaharlar va hatto butun mamlakat iqtisodiy rivojlanishining drayveri, ya’ni harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

Kreativ industriya qator Yevropa shaharlarining yangi iqtisodiy rivojlanish siyosati va strategiyalari markazida turadi. Kreativ tarmoqlar faol o‘sishi, ayniqsa London, Berlin va Barselona shaharlarida kuzatilmoqda. Jumladan, Londonda 386 mingdan ortiq kreativ tadbirkorlar mavjud, ular 19 milliard funt sterlingga yaqin daromad keltiradi. Bu Buyuk Britaniya poytaxti iqtisodiyotining 16 foizini tashkil qiladi, degani. “GLA Economics” ma’lumotiga ko‘ra, reklama, arxitektura, axborot texnologiyalari va nashriyot kabi ijodiy sohalar Londondagi umumiy ish o‘rinlarining 16,3 foizini qamrab oladi.

Berlin so‘nggi paytlarda turli xalqaro tadbirlar o‘tkaziladigan asosiy markazlardan biriga aylandi. Misol uchun, Berlinale, German film awards, Media Convention, Gamesweek, Deutscher Computerspielpreis shular jumlasidan. Mazkur shaharda loyiha-maydonlari (project spaces) keng tarqalgan, ushbu hududlarda maxsus jihozlangan binolar bo‘lib, ularda ma’lum bir loyihani amalga oshirish, biznes modellari va turli g‘oyalarni tajribadan o‘tkazish asosida sinab ko‘rish mumkin. Umumiy qilib aytganda, Berlinda 170 ming xodimga ega 24 mingdan ortiq kreativ korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Barselona shahri ham kreativ industriyaning eng yirik klasterlaridan biri. Bu yerdagi kreativ tarmoqlarga dasturlash, video-industriya, ilmiy-tadqiqot ishlari, bosmaxona, moda, zargarlik buyumlari va musiqa sanoati kabilar kiradi. Shaharda kreativ industriya doimiy o‘sishda davom etyapti va yangi ish o‘rinlari yaratish, raqobatbardoshlik va farovonlikni oshirishning kuchli vositasiga aylangan.



(UNCTAD tasnifi bo‘yicha kreativ sohalar tasnifi)

“The Catalan Institute of Cultural Enterprises” tashkiloti Kataloniyada faoliyat yuritayotgan 140 mingdan ortiq kreativ tadbirkorlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Kreativ industriya yiliga 5,7 milliard yevro miqdorida daromad keltiradi. Bu Barselonada ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar qo‘shimcha qiymatining 3,2 foizini tashkil etadi. Ispaniya hukumati Barselonada ta’lim, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, kreativ sohalarda biznes loyihalarini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashmoqda. Kreativ loyihalarga investorlarni jalb etish maqsadida savdo yarmarkalari, iqtisodiy tadbirlar va g‘oyalar tanlovlari tashkil etiladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotda kreativ industriyani rivojlantirish bo‘yicha hukumatlar, vazirliklar darajasida amalga oshiriladigan hamda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan turli dasturlarni hayotga joriy etish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Yevropada kreativ tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash bir vaqtning o‘zida to‘rtta infratuzilma komponentlarini rivojlantirishga asoslanadi. Bular professional tarmoqlar va uyushmalar, maxsus ta’lim dasturlari, biznes inkubatorlar va akseleratorlar hamda ijodiy klasterlardir.

Buyuk Britaniyada kreativ industriya vakillariga binolarni imtiyozli shartlar asosida taqdim etish va grantlar asosida qo‘llab-quvvatlash amaliyoti keng tarqalgan. Hozir ushbu davlatda kreativ industriyaning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 77 milliard funt sterlingni tashkil etadi. Birgina ushbu tarmoqda 1,7 milliondan ortiq ish o‘rni yaratilgan.

Bu davlatda federal darajada kreativ sohalar uchun yagona siyosat mavjud emas, barcha tarmoqlar shtat va munitsipalitet darajasida qo‘llab-quvvatlanadi.

Kreativ industriya innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, AQSHning jahon bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi va iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. AQSH kreativ industriya tushunchasini aniqlashda konservativ yondashuvni qo‘llaydi, faqat san’at asarlarini ishlab chiqaradigan yoki tarqatuvchi korxonalarga (notijorat muzeylardan, simfonik orkestrlar va teatrlardan tortib tijorat kino, arxitektura va reklama kompaniyalarigacha) e’tibor qaratiladi. Kreativ sektor ulushini baholashda kompyuter dasturlash va ilmiy tadqiqotlar kabi sohalar e’tiborga olinmaydi.

Skandinaviya modeli. Ushbu hudud mamlakatlaridagi kreativ industriya modeli tadbirkorlik faoliyatida kreativ ko‘nikmalarni amaliy qo‘llashga o‘rgatuvchi kasb-hunar ta’limi tizimiga ixtisoslashgan. Bu model, shuningdek, grant yordamida qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va ijodkorlikka investitsiya kiritishga asoslanadi.

Kreativ industriyani rivojlantirishning Osiyo modeli ijodiy mahsulotning innovatsiya tarkibiy qismini yaratishga qaratilgan. Bunda an’anaviy madaniyat elementlaridan jahon bozorida milliy manfaatlarni ilgari surish siyosati sifatida foydalanadi. Janubiy Koreyada “Koreya ijodiy kontent agentligi (KOCCA)” mamlakat kreativ industriyasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va koreys tovarlarini xalqaro bozorga olib chiqish siyosati bilan shug‘ullanadi.

Xorij tajribasini o‘rganish jarayonida kreativ industriyani rivojlantirishning dunyo bo‘yicha to‘rtta guruh modellari aniqlandi. Bular: Amerika, Skandinaviya, Yevropa va Osiyo.

Kreativ industriyani rivojlantirishning to‘rt guruhi

Yevropadagi kreativ sohalar faoliyati madaniy qadriyatlar, individual yoki jamoaviy ijodiy faoliyatning badiiy shakllariga asoslangan, “Kreativ Yevropa” dasturida belgilangan tarmoqlardan iborat bo‘ladi. Uni rivojlantirishning Yevropa modeli xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kreativ industriyalarning tarmoq faoliyati va muhim tarkibiy qismlarini birgalikda hamda klasterlar tizimi orqali moliyalashtirishga asoslanadi. Kreativ klasterlar bu kreativ mahsulot yaratuvchilarining ma’lum bir hududda konsentratsiyalashuvi bo‘lib, ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar va iste’molchilar uchun ijodiy kuch va ilhom beruvchi markaz hisoblanadi.

Ko‘hna qit’a mamlakatlarida kreativ klasterlar o‘z ishtirokchilarining badallari, shuningdek, olingan grantlar hisobiga faoliyat yuritadi. Hozirda kreativ sektor va tarmoqlarni moliyalashtirish dolzarb masala bo‘lgani sababli Yevropada samarali moliyaviy ekotizimni yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Amerika modeli tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish, ijodiy qobiliyat va yaratuvchanlikni rivojlantirish siyosatiga asoslanadi. AQSHda “glokalizatsiya” strategiyasi keng qo‘llaniladi. Bu iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanish jarayoni bo‘lib, ko‘p yo‘nalishli tendensiyalarning birgalikda mavjudligi va xorijlik iste’molchilarning ehtiyojiga moslashtirilgan mahsulot va xizmatlarni yaratishga yo‘naltirilgani bilan tavsiflanadi.

Xitoyning kreativ industriyasi esa iqtisodiyotning xususiy sektor sarmoyalariga tayanadi va Yevropaning ijodiy sohalari kabi global bozorlarga yo‘naltirilgan.

Metodologik nuqtayi nazardan, ijodiy, madaniy va kreativ industriyaga taalluqli sohalarni ajratish muammosi xorij hamda O‘zbekiston amaliyotida ochiqligicha qolmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida kreativ industriya ulushini baholash hamda uning taraqqiyot tendensiyalarini tahlil etish maqsadida O‘zbekistonda kreativ industriyaga taalluqli sohalarni aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholini ish bilan ta’minlash, ijodiy qobiliyatga ega iste’dodlarni hamda kreativ tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Butun dunyo, jumladan, kreativ industriyani yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqishda maktab davridan boshlab kreativ tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish bo‘yicha ta’lim dasturlarini kengaytirish, shubhasiz, ustuvor vazifalardan biridir. Kreativ industriyani moliyalashtirishda qo‘llaniladigan kraudfanding va fandrayzing usullaridan tashqari, ijodiy soha vakillarining faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va samarali moliyaviy infratuzilma yaratilishi O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini diversifikatsiya qilishning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Umuman, mamlakatimizda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning dastlabki bosqichlari boshlangan. Masalan, aksariyat shaharlarimizda yoshlarning iqtidorini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilayotgan texnoparklar tashkil etildi. Natijada yurtimizda startaplar tobora keng joriy etilib, yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Bu quvonarli hol, albatta.

Doniyor aka nima maqsadda kelganimizni bilgach, darhol uyining tomiga ishora qilib, quyosh panelini ko‘rsatdi. Fotograf suratga olishni, men esa xonadon egasi bilan suhbatni boshladim.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 19-yanvar, 14-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_of z.uz_news yuz

Jurnalist safarda bo‘ldi

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TOMDAGI NOYOB QURILMA

U odamlarga qanchalik naf keltiryapti?

Boshlanishi 1-betda

Maqolamizda bu kashfiyotning qanday yaratilgani, ilk bor kimning xayoliga kelgani-yu, quyosh panellari, degan so‘z qachon paydo bo‘lgani haqida fikr yuritmoqchi emasmiz. Zotan, hozirgi kunda odamlarni ko‘proq ushbu panellarning foydasi, tejamkorligi, xonadonga o‘rnatish xarajatlari va quyosh batareyasi o‘zida to‘plagan ortiqcha elektr tokini davlatga sotish imkoniyati kabi hayotiy savollar qiziqtiradi. Bu haqda mutaxassislardan ma’lumot olish boshqa, ammo panellarni o‘z xonadoniga o‘rnatib, undan foydalanayotgan odamlardan so‘rab bilish hamma uchun qiziq. Axir boshidan o‘tkazgan tabib, deyishadi-ku. Yangi texnologiyaning qulayligini ham, kamchiligini ham hech kim undan foydalanayotgan odamlardek yaxshi bilmasa kerak.

ISHDA HAM, UYDA HAM EKOLOGIYA HIMOYACHISI

Hamkasblarim bilan avtomobilda ketayotib shular xayoldan o‘tdi. Biz yo‘l olgan manzil — Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida 233 ta xonadonda quyosh paneli bor ekan. Shundan 44 ta kam ta’minlangan fuqaro xonadoniga hokimlik va homiylar tomonidan 2,26 kilovattlik panel o‘rnatib berilgan. Hududdagi kichik sanoat zonasida quyosh panellari ishlab chiqaradigan korxona ham ishlab turibdi. Tuman hokimligining moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi Azamat Quvondiqov bir kunga mo‘ljallangan kichik safarimizni ana shu ma’lumotlarni berishdan boshladi.

Ziyrak o‘quvchi Yuqori Chirchiq tumaniga borishdan maqsadimizni allaqachon anglagan bo‘lsa kerak. Poytaxtdan uzoq bo‘lmagani uchunmi, manzilga tezda yetdik. Bizga biriktirilgan mutasaddi bilan uchrashib, vaqtni o‘tkazmaslik uchun darhol O‘zbekiston mahallasi tomon yo‘l oldik. Uyiga quyosh paneli o‘rnatib, undan foydalanayotgan bir nechta xonadonga kirish, ular bilan suhbatlashishni reja qilganmiz. Ochig‘i, ushbu texnologiya borasidagi savollarga javob olish bizga ham qiziq edi.

Doniyor aka nima maqsadda kelganimizni bilgach, darhol uyining tomiga ishora qilib, quyosh panelini ko‘rsatdi. Fotograf suratga olishni, men esa xonadon egasi bilan suhbatni boshladim.

— Bu quyosh paneli 2 kilovatt quvvatga ega bo‘lib, uni o‘rnatish xarajatlari jami 19 million so‘mga aylandi, — deydi Doniyor Davutbekov. — Qurilmani kredit asosida sotib oldim, davlat tomonidan belgilangan subsidiyadan ham foydalandim. Gap shundaki, o‘tgan yilgi anomal sovuqda elektr toki bilan bog‘liq uzilishlar ko‘pchilik qatori bizni ham qiynadi. Shundan so‘ng o‘zimizda doim zaxira bo‘lsin, degan maqsadda quyosh paneli olishga qaror qildik va iyun oyida uni o‘rnatdik. Qurilmaga 15 yilga kafolat berishgan. Foydalanishda ortiqcha xarajat, qiyinchilik yo‘q. Mutaxassislarning o‘zi har yili kelib, texnik ko‘rikdan o‘tkazib berib, nuqsonli qismlari almashtirilar ekan. Quyosh batareyasi kunduzgi yorug‘likdan elektr toki oladi, qorong‘i vaqtda esa tok ishlab chiqarmaydi va yetkazib bermaydi. Faqat batareyaga qo‘shimcha sifatida xarid qilinadigan akkumulyator hisobiga elektr zaxirasini yig‘ib, uni istalgan vaqtda ishlatish va davlatga sotish mumkin. Akkumulyator bo‘lmaganda esa quyosh panelining ishlashi umumiy tarmoqqa bog‘liq bo‘ladi, chiroq o‘chsa, u ham ishlashdan to‘xtaydi. Shu bois, men 2 ta akkumulyator qo‘yganman, uning zaxirasi 3 soatga yetyapti. Yana qo‘shimcha akkumulyator olsam, zaxira quvvati yanada ortadi. Uyimiz 5 xonadan iborat, bir nechta elektr jihozi ishlab turadi, suv isitish apparatlari bor, lekin barcha yoritkichlarimiz energiyatejamkor bo‘lgani uchun elektr tokiga bo‘lgan kunlik ehtiyojimiz u qadar katta emas, 3,5-4 kilovatt. Quyosh paneli esa soatiga 2 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqaradi, demak, 8 soatda 16 kilovatt zaxira to‘planadi. Bu iste’molimizdan 4-5 barobar ko‘p degani. Shu bois, noyabr oyidan boshlab ehtiyojimizdan ortgan elektr tokini davlatga sotishni yo‘lga qo‘ydik. Elektr tarmoqlari korxonasi bilan shartnoma imzolaganmiz, faqat integratsiya ishlari qolgan. Aytishlaricha, quyosh paneli ishlab chiqaradigan elektr tokini biz davlatga elektr uchun to‘laydigan narxdan bir necha barobar qimmatga sotib olishadi. Chindan shunday bo‘lsa, quyosh paneli o‘rnatgan odamlarga bu katta qulaylik tug‘dirib, qo‘shimcha daromad bo‘ladi.

Quyosh panellarining yana bir afzalligi, ekologiya uchun zararsiz ekanida. Iqlim o‘zgarishlari va uning oqibatlari muammosi qarshimizda turgan bir vaqtda, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, elektr toki ishlab chiqarishdagi zararli ta’sirlarni kamaytirish muhim vazifaga aylanib boryapti. Doniyor aka bilan suhbatlashish asnosida yana bir qiziq ma’lumotga ega bo‘ldik. Bu kishi tadbirkorlik bilan shug‘ullanar ekan. Qizig‘i, faoliyati ham bevosita ekologiya va atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq. Ya’ni tadbirkor rahbarligidagi “Zero Waste” MCHJ filiali 140 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan Yuqori Chirchiq tumanida maishiy chiqindilarni tashish bilan shug‘ullanadi. Korxona shartnoma asosida aholi xonadonlari, yuridik va budjet tashkilotlariga xizmat ko‘rsatadi. Jami 16 ta maxsus texnika va samosval jadval asosida haftada bir marta to‘plangan chiqindilarni olib ketadi.

— Chiqindilar tumandagi “Buloqboshi” MFYdagi korxonaga tegishli poligonga olib borib to‘kiladi, — deydi Doniyor aka. — Undan oldin esa chiqindilar saralanib, qog‘oz, plastmassa, temir, polietilen kabilarga ajratiladi. Afsuski, bizda chiqindilarni qayta ishlash rivojlanmagan. Bu borada endi qadamlar tashlanyapti. Shu bo‘yicha tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan biz kabi tadbirkorlarga ham qo‘shimcha imtiyozlar berilyapti. Chiqindilarni saralash bosqichidan qayta ishlashga o‘tishimiz kerak. Allaqachon buning vaqti kelgan. Oxirgi vaqtlarda xonadonlardan chiqindi ko‘p chiqyapti. Yetti yildan buyon shu sohada ishlayman, 3 yil oldin ham bunday emasdi. Hozir chiqindi chiqishi 2 barobar ortgan, ularni poligonga sig‘dirib bo‘lmayapti. Bu aholining turmush darajasi yaxshilangani bilan ham bog‘liq ekani quvonarli albatta, ammo chiqindi tabiat va ekologiya uchun zararli. Bunday sharoitda chiqindini qayta ishlashni faol yo‘lga qo‘yish kerak. Biz ham bu borada harakatni boshlaganmiz. Joriy yilning 3-choragida chiqindilarni qayta ishlashni yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Buning uchun Turkiya va Xitoy bilan shartnoma imzolangan, ulardan chiqindini qayta ishlab, neft va gaz mahsuloti ishlab chiqaradigan maxsus texnikalar olib kelinadi. Bu texnologiya O‘zbekiston sharoitida yangilik bo‘lib, ushbu yo‘nalishda yuqori samaradorlikka ega ekanini o‘rgandik.

Suhbat so‘nggida Doniyor aka qaysi gazetadan ekanimizni yana bir bor so‘radi. Boshida hayajon sabab unchalik e’tibor bermagandir, deya takrorladim. “Ha, esimda, “Yangi O‘zbekiston”ning birinchi soni 2020-yilda davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga murojaatnomasi bilan chiqa boshlagandi. O‘qib boraman gazetani”, dedi tadbirkor xotirjam. Avvaliga hayron qoldim, keyin xursand bo‘ldim. Axir hozirgi ilg‘or tadbirkorlarning ko‘pi shunday, ko‘proq o‘qib-o‘rganishga, yangilik qilishga intiladi. Ular zamonamiz qahramonlariga aylangani boisi ham shunda bo‘lsa kerak.

ELEKTR TOKI TEKINGA TUSHADI

Chindan ham, keyingi paytlarda odamlar yangilikni ancha tez qabul qilyapti. Ilgari biror yangi qurilmaning ommalashishi uchun bir necha yil ketgan bo‘lsa, hozir yurtimizga kirib kelishi hamon xaridorlari paydo bo‘lyapti. Quyosh panellaridan foydalanish ham shunday, ko‘pchilik bunga darhol qiziqish bildirdi. Avvaliga, ularni korxona, tashkilot-muassasalarga o‘rnatish boshlandi, bugun esa ko‘plab xonadonlar tomida quyosh panellariga ko‘zimiz tushyapti. Ayniqsa, ushbu qurilmani o‘rnatgan aholiga bir qator imtiyozlar berilgani iste’molchilarda katta qiziqish uyg‘otib, ular safi kengayishiga turtki bo‘lmoqda.

Bu borada o‘tgan yil 1-apreldan yurtimizda joriy etilgan “Quyoshli xonadon” dasturi ayni muddao bo‘ldi. Mazkur dastur 2023-yil 16-fevralda qabul qilingan “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori bilan ishga tushdi. U aholi xonadonlariga kichik quvvatli quyosh panellari o‘rnatishni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Jumladan, jismoniy shaxslar quyosh panellarini 3 yil muddatga foizsiz, bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olishi, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditdan foydalanishi mumkin. Bunda 5 kilovattgacha bo‘lgan qismiga bo‘lib-bo‘lib to‘lash imtiyozi beriladi. Shuningdek, quyosh paneli yordamida xonadonini elektr energiyasi bilan ta’minlagan jismoniy shaxslar 3 yil, tadbirkorlik subyektlari esa 10 yil davomida yer va mulk solig‘idan ozod etiladi. Asosiysi, qurilmani o‘rnatgandan keyin xonadon sohibi elektr ta’minoti korxonasi bilan elektr energiyasini sotish bo‘yicha shartnoma imzolash huquqiga ega. Ya’ni yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘z uyiga quyosh paneli o‘rnatgan fuqarolar ehtiyojidan ortgan qismini davlatga sotib, qo‘shimcha daromad qilishi mumkin.

Bu, ayniqsa, ehtiyojmand, kam ta’minlangan oilalar uchun yaxshi imkoniyat. Yuqori Chirchiq tumanida ham shunday oilalarga qo‘shimcha yordam bo‘lsin, degan maqsadda 2 kilovattlik quyosh panellari o‘rnatib berilgan. Qurilmaning zaxira to‘playdigan akkumulyatorini o‘rnatish esa xonadon egalarining o‘z ixtiyorida. Shu bois, garchi ular hozircha davlatga elektr toki sotmayotgan bo‘lsa-da, o‘z ehtiyojlarini qoplab, elektr tokiga to‘lab kelayotgan xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi. Butunlay xalos bo‘lmaganining sababi esa, quyosh paneli akkumulyatori bo‘lmagan vaqtda umumiy elektr tarmog‘iga ulab foydalaniladi, elektr toki o‘chib qolsa, u ham ishlashdan to‘xtaydi. Kechqurun ham tok ishlab chiqarmaydi.

— Kunduzi quyosh panelidan, kechasi umumiy tarmoqdan foydalanamiz. Boisi, akkumulyator qo‘ymadik, — deydi “O‘zbekiston” MFYda yashovchi Deniz Shokirov. — Shunday bo‘lsa-da, kun davomida elektr tokiga ketadigan xarajatlarimizni iqtisod qilamiz. Bu ham katta yordam. Yana soliq to‘lovlarida ham imtiyozlar bo‘lishi, quyosh paneliga akkumulyator o‘rnatsak, davlatga elektr toki sotishimiz ham mumkinligini aytishdi. Qurilmadan foydalanishda qiyinchilik ko‘rmadik, vaqtida ustini tozalab tursak bo‘ldi, ishlayverarkan.

Ushbu oila boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha “Temir daftar” ro‘yxatida turadi. Altinay opa Davletova 2009-yilda turmush o‘rtog‘i vafotidan so‘ng 2 bolasi bilan yolg‘iz qolgan. Shu vaqtgacha turli norasmiy ishlarda ishlab keladi. Bir muddat ishsiz ham yurdi. Yaqinda mahalla ko‘magi bilan sartaroshlik ishini qayta boshladi. Xonadonda 10 sotixdan ortiq tomorqa bor. Hokimlik avvaliga issiqxona qurib berish taklifini bergan. Ammo unda ishlaydigan odam bo‘lmagani bois, oila buni rad etdi. Shundan so‘ng quyosh paneli o‘rnatib berildi.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

Deniz oilaning to‘ng‘ich o‘g‘li. Toshkent davlat transport universiteti talabasi. Shartnoma asosida o‘qiydi. Kontrakt pulini to‘lash uchun ham o‘qib, ham ishlaydi. Onasi ishda bo‘lgani sababli, bizni o‘zi kutib oldi. Quyosh panelidan foydalanish yaxshi ekanini aytdi. Ammo bir muddat oldin qandaydir texnik nosozlik bo‘lib, ishlab chiqaruvchilar qurilmaning bir qismini tuzatishga olib ketishgani va haligacha olib kelishmaganini ham yashirmadi. Elektr toki xarajatini tejayotgan oilaga bu darrov bilingani tayin.

> **“Shokarimovlar xonadoniga ham 2 kilovattlik quyosh paneli o‘rnatib berilgan. Ularning uyiga kirishimizdan maqsad ham shu edi, aslida. Qurilma dekabr oyida o‘rnatilgan. Xonadonda 9 ta xona borligi, kunduzi zarur bo‘ladigan elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojni quyosh paneli to‘liq qoplayotganini aytishdi.”**

DAVLATGA SOTISH TARTIBI QANDAY?

Quyosh panellari o‘rnatgan aholi nafaqat o‘zi, balki mamlakat iqtisodiyotining ham barqaror o‘sishiga munosib hissa qo‘shadi. Yurtimizda ekologiya uchun zararsiz bo‘lgan muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko‘lami ortadi. Shu bois, davlat bu borada fuqarolarni rag‘batlantiryapti. Masalan, ehtiyojidan ortgan qismini elektr tarmoqlari korxonasiga sotib daromad qilganda, jismoniy shaxslar tomonidan hech qanday soliq to‘lanmaydi. Aytaylik, xonadon egasi 1 kVt/soat elektr energiyasini davlatga 1000 so‘mdan sotadi. Agar xonadonga 5 kVt quvvatli quyosh panellari o‘rnatilsa, quyosh stansiya oyiga o‘rtacha 750 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Fuqarolar tomonidan sotilgan elektr energiyasi uchun mablag‘ esa davlat tomonidan har oy “Soliq.uz” mobil ilovasi orqali fuqarolarning bank plastik kartalariga o‘tkazib beriladi.

— O‘zim elektrotexnikalarni dasturlash sohasida ishlayman. Qo‘shimcha daromad olishga qiziqib, xonadonimga 8 kilovatt quvvatli quyosh paneli qo‘ydim, — deydi “Qorasuv” MFYda yashovchi Behzod Sobitov. — Uni o‘rnatish xarajatlari ish haqidan tashqari, 60 million so‘mga aylandi. Hozir quyosh paneli yaxshi ishlayapti, asosan, ehtiyojim uchun foydalanyapman. Kasbim energetika bilan bog‘liq bo‘lgani uchun xonadonimda elektr toki iste’moli katta. Shunga qaramay, ehtiyojdan ortgan qismini sotishni boshlaganmiz. Keyinchalik quyosh paneli quvvatini 50 kilovattga olib chiqish niyatim bor. Shunda oyiga 700-800 dollar daromad qilar ekanman. Buni “Soliq.uz” dasturidagi shaxsiy kabinetimdagi jadval asosida hisoblab chiqdim. Umuman, bu aholi uchun yaxshi daromad manbai bo‘la oladi. Hozir dunyoda yashil energetika rivojlanib, unga ehtiyoj ham ortib boryapti. Kasbim taqozosi bilan Ukraina, Rossiya davlatlaridan ham buyurtmalar olaman. Kuzatganimda ko‘rdimki, ularda bizdagi kabi imtiyozlar yo‘q. Masalan, u yerda davlatdan elektr tokini qanchaga sotib olsa, sotish narxi ham shunday. Bizda esa aholidan elektr tokini 2-3 barobar qimmatga sotib olish taklif etilyapti. Agar tizim aniq, shaffof ishlasa, bu odamlar uchun katta rag‘bat bo‘lib, quyosh panellari o‘rnatish ko‘rsatkichini yanada oshiradi.

Ochig‘i, xonadon egalarini tinglab, bizda ham quyosh paneli o‘rnatishga qiziqish paydo bo‘lib qoldi. Bu boradagi savollarga ham javob topdik, ikkilanishlar yo‘qoldi. Axir ona diyorimizda yil o‘n ikki oy quyosh beminnat nurini sochar ekan, undan foydalanish orqali ham xarajatlarni kamaytirish, ham ekologiyani asrashga hissa qo‘shishning yomon tomoni bo‘lmasa kerak.

Siz nima deysiz, qadrli mushtariy?

YORDAMDAN QUVONGAN KO‘ZLAR

Kambag‘allik ayb emas. Ammo hayotda har narsa bo‘lishi mumkin, u bizga qanday sinovlarni tayyorlaganini bilmaymiz. Qiynalib qolgan odamga uzatilgan qo‘l, kichik yordam esa uning ko‘nglini osmon qadar ko‘tarib yuborishi mumkin. Yolg‘iz emasligini, noiloj qolmaganini his qiladi. Qayta oyoqqa turishga kuch topadi.

Biz borgan keyingi manzilda chinakam qahramon ayolni ko‘rdik. Bu ayol olima ham, katta tadbirkor ham, olamshumul ixtiro egasi ham emas. U shunchaki, oddiy va juda hokisor ayol. Qorasuv mahallasida uni ko‘pchilik yaxshi taniydi va hurmat qiladi. Nafaqadagi Nasiba Shokarimova mana, necha yildirki, oilasidagi imkoniyati cheklangan yaqinlariga g‘amxo‘rlik qiladi. Xonadonning asosiy boquvchisi o‘zi va turmush o‘rtog‘i. Hozir ikkovi ham nafaqada. Oilada esa 5 nafar imkoniyati cheklangan insonlar bor.

— Hayotimdan nolimayman, Allohimning shunday sinovlari bor ekan, har qanday holatda ham yig‘lamadim, — deydi Nasiba opa kulgi bilan ko‘zlaridagi dardni yashirishga urinib. — Turmush o‘rtog‘imning akasi vafot etgach, 2 nafar nogiron farzandiga o‘zimiz qarayapmiz. O‘tgan yili 71 yoshli opamni ham uyimizga olib keldik, imkoniyati cheklangan. Qizlari va nabiralari ham nogiron. Allohga shukr, biz sog‘miz va nogironlarga qarashga og‘rinmayman. Shu vaqtgacha bo‘sh qolgan, nogironlarning nafaqasiga qarab o‘tirgan ayol emasman. Tikish-bichish qilib, ro‘zg‘or tebratishda turmush o‘rtog‘imga yordam berib kelganman. Uch qizimiz bor, ularni turmushga berganmiz. O‘zimni eng baxtli insonlardan biri, deb bilaman. O‘tgan yili 21-martda Prezidentimiz ko‘rsatgan tashabbus bilan bepul umra ziyoratiga bordim. Bu men uchun juda katta mukofot.

Har gapida shukrona aytayotgan Nasiba opani tashqaridan ko‘rgan kishi biror tashvishi bo‘lmasa kerak, degan xayolga boradi. Balki bu ayol har kuni imkoniyati cheklangan insonlarga qarab, sog‘-salomat yashashning o‘zi katta ne’mat ekanini anglar. Har holda, mutasaddilarga ham biror kamchilikdan so‘z ochmadi, hayotidan nolimadi. Aksincha, uyida hamma narsa borligini aytib, qayta-qayta mehmonga taklif qildi. Shunday odamlarni ko‘rganda insonning dili yayraydi, hayotning mazmunini chuqurroq anglagandek bo‘ladi, shukr qiladi.

Shokarimovlar xonadoniga ham 2 kilovattlik quyosh paneli o‘rnatib berilgan. Ularning uyiga kirishimizdan maqsad ham shu edi, aslida. Qurilma dekabr oyida o‘rnatilgan. Xonadonda 9 ta xona borligi, kunduzi zarur bo‘ladigan elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojni quyosh paneli to‘liq qoplayotganini aytishdi. Mahalla mutasaddilari imkonini qilib yoki homiylik asosida panelga akkumulyator olib berish haqida ham so‘z ochishdi. Nasiba opa xursand bo‘ldi. Xonadon o‘z ehtiyojidan ortganini davlatga sotsa, harna qo‘shimcha daromad bo‘ladi-da.

O‘zi aholiga yordam asosida berilgan quyosh panellarining akkumulyatori yo‘q ekan, chunki bu nazarda tutilmagan. Surishtirganimizda akkumulyatorning har biri hozirgi bozor narxida 1 million so‘mdan oshishini aytishdi. Uni olish yoki olmaslik fuqarolar ixtiyorida. Bir tomoni, akkumulyator bo‘lmasa, quyosh panelining ishlashi umumiy tarmoqdagi elektr tokiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, o‘zimiz kirgan xonadonlar egalaridan hududdagi elektr ta’minoti qanday ekani, tez-tez o‘chish yoki o‘chmasligini ham surishtirdik. Eng qizig‘i, savolimizga odamlarning barchasi, “yo‘q, hozir davlat “svet”i ham ko‘p o‘chmayaptiku, ba’zan ta’mirlash vaqtida bir necha soatga o‘chadi, shunda ham ogohlantirishadi”, degan javobni berdi. Avvallari elektr toki o‘chishi haqida gap ketsa, birdaniga noroziliklar boshlanib, odamlardan muntazam uzilishlar haqida eshitganimiz uchunmi, bu holat bizni bir oz hayron qoldirdi. Boshqa tomondan, sohadagi islohotlar hayotda samara berayotgani va buni odamlarning o‘zi e’tirof etayotgani ham quvonarli.

Mulohaza

BARCHA ILLATLARNING DOYASI – loqaydlik

Rahimboy JUMANIYOZOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, ma’naviyat doim yuqorida turadi. Ma’naviyatning ildamligi, uning bayroq va mayoq ekani, boshqaruvchi kuchini his etmaslik mumkin emas. Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayoni yuz bermoqda.

Poytaxtimizda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiya ham shu ma’noda katta ahamiyat kasb etgani rost. Bu borada davlatimiz rahbarining ma’rifatparvar ajdodlar merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi haqidagi ushbu mulohazalari muhimdir: “Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”.

Haq gap. Shuning uchun ham Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochilishi va “Jadid” nomli yangi gazeta tashkil etilishi haqidagi xushxabarni hamma olqishladi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida o‘zbek tilining nufuzi va mavqeini tubdan oshirish hamda til siyosatini takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga ham xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan boshqa fan o‘qituvchilaridan kam bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha haq to‘lanishi, milliy sertifikatga ega bo‘lgan O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama berilishi, o‘zbek tilidan boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini o‘rganishga rag‘batlantirish bo‘yicha alohida mexanizm joriy etilishi, o‘zbek tilidan boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari 2-3 karra ko‘paytirilishi, o‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadasi o‘tkazilishi, g‘olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanishi hamda oliygohlarga o‘zbek tili filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishi masalasining alohida urg‘ulanishi xalqimizni baxtli va rozi qilish borasidagi qutlug‘ qadam bo‘ldi.

Biz ona tilimizning imkoniyatlaridan, ifoda vositalaridan unumli va o‘rinli foydalana olsak, targ‘ibotning ta’sirchan kuchidan foydalana olamiz. Buning uchun tilni shunchalik o‘rganish emas, balki unda yashash, nafas olish kerak. Tilimizdan, ta’sirchan nutqdan foydalanish asnosida uni o‘zimizga qarshi qurol sifatida istifoda etadigan yot g‘oya tarafdorlari ham borligini unutmaslik zarur. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiyaning, muloqot va muomalaning, targ‘ibot va tashviqotning ta’sirchan mexanizmi bo‘lgan til masalasi, notiqlik mahoratini egallash muhim vazifadir. Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, albatta, bilim va zakovatni talab etadi.

Shuning uchun ham yuqoridagi yig‘ilishda “Biz bugungi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob ber-yaptimi?” kabi keskin savollar o‘rtaga tashlandi.

Tan olish kerak, yot g‘oya tarafdorlarining “yoqimli” va “yuqumli” so‘zlari ta’siriga tushib adashgan yoshlarimiz fojiasida targ‘ibotning ta’sirchan mexanizmi bo‘lgan kommunikativ kompetentlikni, notiqlik san’atini chuqur egallamaganimizning ta’siri bor. Bu achchiq haqiqat, albatta. Matbuot nashrlari, televideniye, radioda ta’limiy-tarbiyaviy targ‘ibot jarayonini eplay olmayotganimiz afsuslanarli holdir. Turli seriallar bilan, oldi-qochdi ko‘rsatuvlar bilan ularning vaqtini, aqlini band qilishdan voz kechish fursati yetdi, nazarimda. Ijtimoiy tarmoqlardagi turli noxush, salbiy hodisalarga o‘z vaqtida javob beradigan, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratadigan bilim, idrok va nutq sohiblari suv va havodek zarur.

Shuningdek, o‘sha yig‘ilishda bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba’zan, hatto mamlakatimizning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilayotgani, jumladan, diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo‘layotgani ta’kidlandi.

Bunday vaziyatda jamiyatimizda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyotkorlik va ogohlikni oshirish lozim. Bu noxush holat mening ko‘chamda emas, bizning mahallada emas, deyish befarqlikdir. Loqaydlik esa barcha illatlarning doyasi.

Mashhur faylasuflardan birining ushbu mulohazasi bejiz aytilmagan: “Dushmanlardan qo‘rqma, nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma, nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq, ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”.

Prezidentimiz ma’naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish lozimligiga ham e’tibor qaratdi. Chunki milliy g‘oya — himoyamiz, himoyamiz esa g‘oyamizdir. G‘oya — chiroq, mafkura — mayoq. Ularsiz harakat ko‘zi bog‘langan holda yo‘l topolmayotgan kimsaning tentirashiga o‘xshaydi.

Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarga qarshi qo‘yish, dunyoviy qadriyatlarni mensimaslik holatlari afsus bilan qayd etildi. Bu o‘rinda Ibrat domlaning “Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur”, degan hikmatli so‘zlari yodga olindi. Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytildi. Bu vazifalar ijrosi ham yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘z-o‘zidan targ‘ibotning ta’sirchan mexanizmi — tilga, ma’rifatga bog‘liq.

Madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati yanada oshirilishi, tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushirilishini ta’kidlay turib: “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”, dedi davlatimiz rahbari.

Boshqa sohalarga nisbatan oldinda yurish keng qamrovli bilimga, yetuk dunyoqarashga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan targ‘ibotchini shakllantirishni taqozo etadi. Shunga erishsak, sohadagi sifat, samara va natija kafolatlanadi.

> **Mashhur faylasuflardan birining ushbu mulohazasi bejiz aytilmagan: “Dushmanlardan qo‘rqma, nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma, nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq, ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”.**

Oltin qanotlar

MAQSADLARIM YUTUQLARIMDAN YUKSAK

O‘zbekistonlik eng yosh IELTS 9,0 sohibi hikoyasi

Suhrob Murodov samarqandlik. 2004-yili Bulung‘ur tumanida tug‘ilgan. U bugungi kunda O‘zbekistondagi C2 sertifikatini qo‘lga kiritgan sanoqli yurtdoshlarimizdan biri. Bu IELTSda 9,0 ball degani. E’tiborli jihati, Suhrob bu ko‘rsatkichni 17 yoshida qayd etgan. Ayni paytda Janubiy Florida universitetining buxgalteriya yo‘nalishi 2-bosqichida tahsil olayotgan yurtdoshimiz yutuqlari va maqsadlari haqida gapirib berdi.

— Odatda IELTSdan 9,0 darajaga talabgorlar 15-20 yillik tajribaga ega o‘qituvchi-instruktorlar bo‘ladi. Shu o‘rinda bu o‘ziga xos mashaqqat ekani ravshanlashadi.

IELTSdan 9,0 olish, bu — imtihonda hech qanday xato qilmadi, degani. Chunki bitta xato ham darajani tushirib yuborishi mumkin.

Ingliz tiliga qiziqish bolaligimdan boshlangan. Uyimizda kichkina kitobcha bo‘lib, unda dunyoning TOP universitetlarida o‘qigan mashhurlar haqida hikoya qilinar edi. Aynan shularga havas ingliz tilini o‘rganishimga sabab bo‘lgan.

2019-yildan ingliz tilini chuqur o‘rganishga kirishdim. Biroq ko‘p o‘tmay karantin boshlanib qoldi. Darajam baland bo‘lmagani bois, boshida bir oz boshim qotdi. Bu vaziyatda o‘zim mustaqil o‘rganishdan boshqa choram yo‘q edi. Tanishlarimdan printer topib kelib, kerakli hamma qo‘llanmalarni chiqarib, ingliz tilini mustaqil o‘rganishga sho‘ng‘ib ketdim.

Kuniga 12-13 soatlab dars qilar edim. Ingliz tilida suhbatlashishga odam bo‘lmagani uchun oynaga qarab, o‘zim bilan o‘zim gaplashib, mashq qilganman.

Karantin tugagach, yana o‘zim o‘qigan o‘quv markaziga qatnay boshladim. Aynan shu paytda O‘zbekistonda ilk marotaba C2 Proficiency imtihoni o‘tkazilayotgan edi. Men ham bu imtihonda qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tdim. Imtihon kuni borsam, zalda o‘tirgan 40-50 kishining hammasi yoshi katta o‘qituvchilaru ustozlar. Eng yoshi o‘zim ekanimdan bir oz taajjublandim, biroq javoblar chiqqandan keyin bildimki, imtihon topshirganlardan sanoqli kishigina bu sertifikatni qo‘lga kiritibmiz.

Bu sertifikatning darajasi IELTSdan 9,0 ga teng sanaladi. Shu sababli IELTSga imtihon topshirar ekanman, menda 9,0 daraja olarmikanman, degan emas, men 9,0 olishim kerak, degan ishonch ustun edi.

Natija faqat meniki, deya olmayman. Buning ortida, avvalo, Yaratganning marhamati, keyin esa ota-onam hamda ustozlarimning katta ko‘magi bor. Otam menga har doim kerakli sharoitlarni yaratib bergan bo‘lsa, onam eng asosiy motivatorim edi. U har doim yonimda turib, “Uddalaysan, qo‘lingdan keladi”, deb turmaganida, balki bugun vaziyat butunlay boshqacha bo‘lardi.

Hozir dunyoning TOP-50 taligiga kiruvchi Janubiy Florida universiteti talabasiman. O‘qishda ham har doim yaxshi natija uchun harakat qilyapman. 18 ming kilometr uzoqdagi mamlakatdan kelib, mahalliy talabalardan ko‘ra, a’lo baholarga o‘qiyotganim o‘zimga ham faxr hissini beradi.

Universitetimizda yaqinda yangi hamjamiyat tashkil etildi, uning asosiy vazifasi katta investitsion loyihalarni oliygohda turib simulyatsiya qilish. Men ham ushbu jarayon ishtirokchisiman. Universitetning 50 million dollar qiymatdagi fondi bizning qo‘limizda, biz uni investitsiyalar kiritish hamda aksiyalar sotib olish orqali ko‘paytirishga harakat qilyapmiz. Mening bundagi vazifam — moliyaviy tahlilchilik.

Shuningdek, o‘qishdan tashqari biznes konsalting bo‘yicha dunyoning eng kuchli to‘rttaligiga kiruvchi “Deloyt” kompaniyasida stajirovka o‘tayapman. Bu men uchun juda katta tajriba maydoni.

Kelajakdagi maqsadlarim — o‘qish hamda stajirovka davomida shu kompaniyalar tajribasi, uslublarini yaxshi o‘rganib, barchasini tahlil qilib, O‘zbekistonda ham shunday katta kompaniya ochish hamda loyihamni jahon bozoriga olib chiqish. Umid qilamanki, bularning barchasini uddalay olaman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Jonibek ALIJONOV yozib oldi.

Islohotlar – amalda

SINOVLARDAN SIYLOVLARGA YO‘LLANMA

Miraziz MIRSULTONOV,
Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i

Har kun ertalab qadrdon ishxonamga yo‘l olar ekanman, kun davomida qiladigan ishlarimni rejalashtirib boraman. Qo‘l telefonimga viloyat yoshlari deyarli har kuni yo‘llaydigan goh yozma, goh ovozli xabar, taklif, murojaatlarni o‘qib, o‘zim uchun xulosalar chiqaraman. Imkon qadar ular bilan yaqin bo‘lishga harakat qilaman. Yo‘l-yo‘lakay nimalarnidir sarhisob qilayotib, o‘zim ko‘rgan, ko‘nglimdan o‘tganlarni bir-bir qog‘ozga tushirib olaman.

Yoshlar bilan ishlashning ham o‘ziga yarasha gashti, sururi, goh munozarali, goh mulohazali tomonlari bor. Ammo ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, iqtidori va salohiyatini to‘laqonli yuzaga chiqarishi, o‘qishi, kasb-hunar egallashi uchun ko‘maklashish zarur. Bu borada keng imkoniyatlar ochilayotgani ham ayni haqiqat.

O‘tgan yili Toshkent viloyatida yoshlar bilan individual ishlash tizimini joriy etish uchun 14-30 yoshdagi 654 ming 215 nafar yosh faoliyati tahlil qilindi. Ular uch toifaga ajratilib, tarbiyasi og‘ir va alohida ishlash zarur bo‘lgan yoshlar turli darajadagi tashkilot-muassasalar rahbarlariga individual biriktirildi. Natijada yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan 20 ming 504 nafar o‘g‘il-qizning barchasiga amaliy ko‘mak berildi.

Oybek Oqqo‘rg‘on tumani Qo‘rg‘ontepa mahallasida yashaydi. U yoshligidan temirchilik bilan shug‘ullangan. Hayotning turli sinovlari, taqdirning kutilmagan zarbalari bor. Bu sinovlar inson boshiga tushishi, uni esankiratib qo‘yishi mumkin. U shunday chorasizlikdan chiqish uchun o‘tgan yili 5-may kuni Oqqo‘rg‘on tumanidagi “Ishga marhamat” monomarkazida Toshkent viloyati hokimiga biriktirilgan yoshlar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda viloyat rahbariga muammolarini aytgan va amaliy yordam olganlardan biri. Oybekning boshiga tushgan hamma sinov ortda qolib, probatsiya ro‘yxatidan chiqarildi. Belni mahkam bog‘lab, hayotda o‘z o‘rnini topish, rejalarini bajarishga jiddiy kirishdi. U boshlagan xayrli tashabbuslar mahallasida keng quloch yoydi. Bugun u nafaqat o‘zi, balki qo‘shnilarining ham tomorqasida dehqonchilikni yo‘lga qo‘yib, mo‘l hosil, mo‘may pul topmoqda. Temirchilikni ham tashlab qo‘ygani yo‘q.

Prezidentimizning “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yoshlar bilan ishlash yo‘nalishidagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga ko‘tardi. Qaror asosida har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Ayni paytda Toshkent viloyatidagi 1025 ta mahallada yoshlar yetakchisi samarali faoliyat yuritmoqda. Ular tengdoshlarini qo‘llab-quvvatlash, muammolarini o‘rganish va hal etishga qaratilgan amaliy ishlar bilan mashg‘ul. Jumladan, yoshlarning rahbarlarga biriktirilishi hamda yoshlar yetakchilari qilayotgan ishlar, ayniqsa, yoshlar bandligini ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtojlarni qo‘llab-quvvatlash, murojaatlarini alohida nazoratga olish borasidagi chora-tadbirlar ijobiy natija bermoqda.

Yana bir hayotiy misol. Chinoz tumanida yashovchi Zohidjon Dadaboyev tirishqoq va o‘z ustida ishlaydigan yigit. Taqdir ekan, u eshitish va gapirish qobiliyatidan mahrum. 2021-yili ishlagani Rossiyaga ketdi. Bundan xabar topgan mahalladagi yoshlar yetakchisi unga qaytib kelishini va qiziqishiga qarab, yordam berishini aytdi. 2022-yil oktabrda Zohidjon migratsiyadan qaytdi. U yashaydigan “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inidagi yoshlar yetakchisi dastlab Zohidjonning ehtiyojidan kelib chiqib, “Yoshlar daftari” jamg‘armasi hisobidan tomorqasi uchun urug‘lik olib berdi. So‘ng hokim yordamchisining tavsiyasi asosida Oqqo‘rg‘on tumanidagi monomarkazda oshpazlik yo‘nalishida o‘qitildi. Oshpazlik sirlarini puxta o‘rgangan Zohidjon “Besh tashabbus olimpiadasi”ning 2023-yil 1-mavsumida “Kasblar tanlovi”ning viloyat bosqichida 3-o‘rinni egalladi. Ayni paytda u Toshkent shahridagi “Ahmad oltin jo‘ja” oshxonasida oshpaz vazifasida ishlab, 5 million so‘mdan ziyod maosh olyapti. Bunday misollar ko‘p. Muhimi, hammasiga yechim topilyapti. Murakkab taqdirli har bir yoshning orzu-maqsadiga erishishi uchun imkoniyatimiz bor.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining yaqinda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat masalalarida jon kuydirib aytilgan so‘zlar barchamizning yuragimizga qadar yetib keldi. Yoshlar orasida ma’naviyat masalasi muntazam kun tartibida turishining zarurati va ahamiyatini to‘la his etdik. Qolaversa, ma’naviyatni, ma’rifatni qaror toptirish maqsadiga hay-barakallachilik, xo‘jako‘rsin tadbirlar o‘tkazish orqali erishib bo‘lmasligiga yana bir karra ishonch hosil qildik. Chunki hozirgi yoshlarning tafakkur tarzi butunlay yangicha. Shu bois, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotning yangi usullaridan foydalanishgina ish beradi. Eskicha usulda yoshlarga ma’naviyatni uqtiraman, degan va shunga uringan odam mablag‘ni ham, vaqtni ham behuda sovurgan bo‘ladi.

2024-yilning mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlangani barcha qatori Toshkent viloyati yoshlarini ham quvontirdi, shuningdek, yelkamizga katta mas’uliyat yukladi. Bu kabi imkoniyatlar katta hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlar hayotida o‘chmas iz qoldirishi shubhasiz. O‘ylaymanki, yoshlar bilan birga marrani baland olib, bir yoqadan bosh chiqarib, ishlasak, natija ham shunga yarasha bo‘ladi.

Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

19-yanvar — Mahmudxo‘ja Behbudiy tavallud topgan kun



O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar.
Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

“TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK”

Bu ma’rifatparvar jadidlarimiz shior qilib olgan ezgu g‘oya edi

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

XX asr avvalida jadidlar milliy g‘oyani hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga qo‘ygan edi. Qardosh qrim-tatar mutafakkiri Ismoilbek Gaspirali 1895-yili “G‘oya” nomli maqola e’lon qilgan. Uning fikricha, “Xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g‘oya yotadi. Eng ulug‘ kashfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlangan. Islom g‘oyalari yarim dunyoni bir hovuch arablar atrofiga birlashtirdi. Moskva atrofiga birlashuv g‘oyasi qudratli Rossiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuzlar mavqeini Yevropada sarbaland qildi. G‘oyasizlik-chi! Millatni zaiflashtiruvchi, turg‘unlikka — tanazzulga olib boruvchi mana shu g‘oyasizlik, maqsadsizlikdir... G‘oyasiz xalqlar yolg‘iz shu kunning, shu daqiqaning manfaati, shu birgina qorinni to‘qlab olish manfaati bilan yashaydi, hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydi. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o‘z oldimizga vazifa va orzu qilib qo‘ymoq kerak emasmi?!”.

Vatanimizni dunyodagi rivojlangan davlatlar, xalqimizni mutaraqqiy millatlar yonida ko‘rmoq — jadidchilik g‘oyasining asosi. Ta’kidlash kerakki, bu — yangi O‘zbekistonni barpo etish hamda Uchinchi Renessansga erishish g‘oyasi bilan har jihatdan mutanosib. Ushbu g‘oyani hayotga tatbiq etmoq uchun jadidlar, birinchi navbatda, yangi usulda ta’lim olgan, olamda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan ogoh, ma’rifatli yoshlarni yetishtirmoq zarur, deb bilgan. Intellektual salohiyat musobaqasida dunyo yoshlaridan o‘zib keta oladigan, yuksak ma’rifatli, vatanparvar va millatparvar avlodni tarbiyalab yetishtirish bugungi kunning ham muhim vazifalaridan. Davlatimiz rahbari tomonidan 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilingani ham buning isbotidir.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida davlatimiz rahbari mana bunday savollarni kun tartibiga qo‘ydi:

“...biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?

Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

Darhaqiqat, bu savollar har bir uyg‘oq qalbli ziyolini o‘ylantirishi, tashvishga solishi, tafakkur yuritishga undashi kerak. Bu masala chinakam millatparvar ziyolining tanidan halovatni, ko‘zidan uyquni olishi lozim. Yoshlar tarbiyasini bugungi ziddiyatli davr talablari darajasiga ko‘tarish uchun jadid bobolarimiz o‘gitlariga quloq tutishimiz, ularning fidoyiligidan o‘rnak olishimiz zarur. Turkiston jadidchilik harakati yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Jadidchilikning tamal toshi, deya e’tirof etilgan maorif islohi jadidlar uchun hayot-mamot masalasi bo‘lgani ayon. Negaki, ilmu ma’rifatda mutaraqqiy mamlakatlar yoshlaridan qolishmaydigan, olamning ahvolidan xabardor, yangicha fikrlaydigan avlodni tarbiyalamay turib, millatni tanazzul girdobidan taraqqiyot sohiliga, inqiroz zulmatidan tamaddun yorug‘ligiga olib chiqish imkonsiz edi. “Yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi” (Begali Qosimov ta’biri) Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida ta’lim islohoti masalasi konseptual ahamiyatga ega bo‘lgani sababi shunda.

Ustozi Ismoilbek Gaspirali Turkiston maktablarida o‘qitish tizimini isloh qilish taklifi bilan general-gubernator baron Vrevskiyga murojaat etgan 1892-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy navqiron 17 yoshda edi. Demak, yosh Mahmudxo‘ja qalbida “usuli savtiya” maktablari g‘oyasi Ismoilbek Gaspirali ta’sirida shakllandi. Keyinchalik sayohatlari davomida ta’lim sohasidagi dunyo tajribasi bilan tanishish barobarida, Gaspirali bilan bevosita uchrashgach, bu g‘oya uning hayotiy a’moliga aylandi. Behbudiy ushbu g‘oyani Vatan mustaqilligi va millat taraqqiysi maqsadlariga yo‘naltirdi. Bu jihatdan, u o‘sha davrda turkiy dunyoning eng mashhur siymolaridan biriga aylangani sir emas. Turkiston jadidchiligini o‘rgangan nemis olimasi Ingeborg Baldauf ulug‘ ma’rifatparvarning bu boradagi faoliyatini

“Mahmudxo‘ja faoliyatining g‘oyat o‘ziga xosligidan qat’iy nazar, u Qrimda Gaspirali, Qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, usmonli turklarning Ahmad Midhati singari O‘rta Osiyoning xalq muallimi edi”, deya baholaydi.

Behbudiyning ta’lim islohotiga doir faoliyati ikki yo‘nalishda kechdi: birinchisi, nazariy va ikkinchisi, amaliy. Ulug‘ mutafakkirning yangi maktab g‘oyasi asosida uch konseptual masala turadi: birinchisi, avlodning savodi o‘z ona tilida chiqmog‘i zarurligi, ikkinchisi, ta’lim jarayonini zamonga moslashtirish, ya’ni “usuli hijo” o‘rniga “usuli savtiya”ni joriy etish, tahsil usulini yangilash, uchinchisi, maktabda e’tiqodimiz asosi bo‘lgan diniy ilmlar bilan bir qatorda zamon taqozosi hisoblangan dunyoviy fanlarni o‘qitish va bu orqali millatning mutaraqqiy xalqlar darajasiga yuksalmog‘iga xizmat qiladigan salohiyatli avlodni tarbiyalash.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

Behbudiy avlodning savodi o‘z ona tilida chiqmog‘i zarurligini milliy ta’limning bosh sharti, deb bildi. Shu bois, o‘zi muharrir bo‘lgan “Oyina” jurnalida til masalasiga asosiy e’tiborni qaratdi. “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida “Barcha madrasalarda shar’iy va diniy kitoblar arabiy ta’lim berilsa ham, mudarrislarni(ng) taqriru tarjimalari forschadir. Bu qoida, ya’ni dars kitobi — arabiy, muallim — turkiy, taqriru tarjimani(ng) forsiyligi xiyla ajibdur”, deya ona tiliga e’tiborsizlikdan taajjublanadi. “Til masalasi” maqolasida ulug‘ ma’rifatparvar til nozik masala ekani, shunga ko‘ra, uning sofligini saqlashga chuqur mantiq bilan yondashuv zarurligi haqida yozadi. Turkiy xalqlarni o‘zaro hamkorlikka chaqiradi. Arabiy va forsiyni imkon qadar kamroq qo‘llab, taraqqiy etgan turkiy shevalardagi ilm-fan kitoblarini anglashga sa’y va g‘ayrat etmoq kerakligini ta’kidlaydi.

Bu muammolar bugungi kunda ham ahamiyatini aslo yo‘qotgan emas. Prezidentimiz o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo‘yicha katta ahamiyatga ega tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, umumta’lim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitish samarasini oshirish, buning uchun milliy sertifikatga ega “O‘zbek tili va adabiyoti” fani o‘qituvchilariga 50 foiz ustama to‘lanishini, bu maqsadlar uchun 2024-yilda qo‘shimcha 10 milliard so‘m, 2025-yilda esa 30 milliard so‘m mablag‘ ajratilishini ta’kidladi. Boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimiz davlat tilidan maxsus sertifikatga ega bo‘lsa, o‘qish xarajatlari davlat tomonidan qoplab berilishi, o‘zbek tilidan o‘zga tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytirilishi bu boradagi muhim amaliy tashabbuslardir.

Jadid bobolarimiz ta’lim usulini zamonga moslashtirish, ya’ni “usuli hijo” o‘rniga “usuli savtiya”ni joriy etish, shuningdek, usuli tahsil — o‘qitish metodikasi masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy fikricha, muallim, birinchidan — olim, ikkinchidan — g‘ayratli, uchinchidan — usuli tahsildan xabardor bo‘lmog‘i zarur. Jumladan, mutafakkir “Islohi tahsil” maqolasida mana bunday yozadi: “Agar muallimning o‘zi hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhavsala yoinki kamilm bo‘lsa, yoinki ilmi bo‘la turub, usuli tahsildan xabarsiz bo‘lsa, ani(ng) shogirdlari nodon qolur”.

Alloma ta’limni zamon talablariga ko‘ra, isloh etmoq uchun dasturiy ahamiyatga ega fikrlarni bildiradi. Uning qarashicha, zamona ulamosi turk bilan turkcha, fors bilan forscha, arab bilan arabcha erkin va muntazam so‘zlasha olishi, hatto bu uch tildagi matnlarni yuqori saviyada tahrir etish iqtidoriga ega bo‘lishi zarur. Bugungi kunda muallimlarning ona tili qatorida dunyo tillaridan bir nechtasini mukammal bilishi, ularda nashr etilayotgan ilmiy kashfiyotlardan, avvalo, o‘zi xabardor bo‘lishi va albatta, yosh avlod ongu shuurini ilmdagi eng so‘nggi yutuqlar bilan yoritishi muhimdir. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida ana shu masala ta’sirli ifodalangani bilan alohida ajralib turadi.

> **Alloma ta’limni zamon talablariga ko‘ra, isloh etmoq uchun dasturiy ahamiyatga ega fikrlarni bildiradi. Uning qarashicha, zamona ulamosi turk bilan turkcha, fors bilan forscha, arab bilan arabcha erkin va muntazam so‘zlasha olishi, hatto bu uch tildagi matnlarni yuqori saviyada tahrir etish iqtidoriga ega bo‘lishi zarur.**

Davlatimiz rahbari bolalarimiz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino singari buyuk mutafakkir ajdodlarimizning qaysi asarini o‘qiy olishi, Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchining bolalik davrini kim bilishi haqida savol berar ekan, ziyolilarga mana bunday murojaat qildi:

“... ana shunday allomalarimizning yoshligi haqida kitoblar yozish, yozganda ham bolalarbop qilib yozish kerak.

Fursatdan foydalanib, men o‘z sohasida ilmiy maktab yaratgan hurmatli olimlarimizni adiblar va noshirlar bilan hamkorlikda bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblar yaratishga chaqiraman”.

Prezidentimizning bu so‘zlari Abdurauf Fitratning “Avlod tarbiyasi — millat tarbiyasi” degan yoniq fikrlarini yodga soladi. Haqiqatan, biz yosh avlod, ayniqsa, bolalarimiz qalbiga buyuk mutafakkir bobolarimiz darajasiga yetishmoq orzusini joylashimiz shart. Xalqimizning “Cho‘qqiga intilgan hech bo‘lmaganda tepaga chiqadi” mazmunidagi maqoli bor. Yosh avlod qalbida ilm-ma’rifatga cheksiz rag‘bat tuyg‘usini uyg‘otishimiz va bu yo‘lda jiddu jahd qilmog‘imiz lozim.

Mahmudxo‘ja Behbudiy fikricha, chinakam taraqqiyga erishmoq uchun yosh avlod o‘z davri ilmlarini o‘rganish bilangina kifoyalanmasligi kerak. Ertangi kun uchun ham qayg‘urmoq, kelar zamon ilmini-da puxta egallamoq zarur. Ulug‘ ma’rifatparvarning “Ey musulmonlar! Bolalaring‘izga kelar zamon ilmini o‘rgatingiz! Zeroki, alarni Xudoyi taolo xalq etdi, sizlarning zamoningizdan boshqa, ya’ni kelar zamon uchun”, degan so‘zlari buning isbotidir. Aslida, buyuk ajdodlarimiz zamondan o‘zib ketish borasida ham beqiyos ibrat namunasini ko‘rsatgan. Bobolarimizning ilmiy kashfiyotlari necha asrlardan o‘tib, bugun ham bashariyat tafakkuri va tamadduni yuksalishiga xizmat qilayotgani buning isbotidir. Demak, avlodlarimizning taraqqiyot bilan hamqadam bo‘lishi, hatto zamondan bir qadam oldinda yurishiga erishmoq uchun asoslar bor.

Ma’rifatparvar jadidlarimiz “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oyani shior qilib olgan va amalda bunga erishgan. Lekin qattol mustamlaka ma’muriyati Vatan va millat fidoyilarining qanotini sindirdi, ularni ayovsiz mahv etdi. Tarixning adolatini qarangki, jadidlarni qatag‘on girdobiga tashlagan, qatl etgan tuzum uzoq yashay olmadi. Bugun u tuzum yo‘q. Lekin jadidlar hanuz tirik. Millat qalbida hamon yashayotir. Jadidlarning bebaho asarlari millatni olg‘a — yuksak marralarga undaydigan Uchinchi Renessans degan hayotbaxsh g‘oyaga xizmat qilayotir. Eski davrlarni qo‘msab, har-har zamonda jon qadar, iymon qadar aziz istiqlolimizga rahna solishga intilayotgan badbaxtlarga qarshi kurashga undayotir. Haqiqatan, bugungi murakkab va ziddiyatli davr har birimizning jadid bo‘lishimizni taqozo etmoqda. Tilda, fikrda, ishda birlikni hayotiy ehtiyojga aylantirmoqda. Siz bunga nima deysiz, aziz zamondosh?!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 123.
8848 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimamatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05